

“TASDIQLAYMAN”

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
Yagona aksiyadori

“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJning
IJROIYA ORGANI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI

Toshkent 2025 y.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ
Yagona aksiyadorining 2025 yil
“17” martdagi
82 –son qaroriga 8-ilova

1. UMUMIY QOIDALAR

1.Ushbu nizom “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organini reglamenti, maqomini, uning ishi, o‘tkazilishi tartibi va u tomonidan qarorlar qabul qilinishini belgilab beradi.

2.Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (bundan keyin matnda - Qonun), boshqa me‘yoriy-normativ hujjatlar, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqarish tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda № 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqarish kodeksiga asosan ishlab chiqilgan.

**2. JAMIYAT BOSHQARUVINING TARKIBI VA UNI
TAYINLASH TARTIBI**

3.Jamiyatning Boshqaruv tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Boshqaruv Raisi;
- Boshqaruv raisining transformatsiya, raqamlashtirish va moliya bo‘yicha birinchi o‘rinbosari;
- Bosh muhandis;
- Boshqaruv raisining tashishlar va logistika bo‘yicha o‘rinbosari;
- Boshqaruv raisining temir yo‘l obyektlarini ta‘mirlash va qurish bo‘yicha o‘rinbosari;
- Boshqaruv raisining rejim va kadrlar bo‘yicha o‘rinbosari.

4. Jamiyatning Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo‘lishi mumkin emas.

5. Jamiyat Boshqaruv a‘zolari bilan mehnat shartnomasi Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi. Jamiyat nomidan Jamiyat Boshqaruvi a‘zolari bilan mehnat shartnomasi Jamiyatning yagona aksiyadori, yoki u belgilagan shaxs tomonidan imzolanadi.

6.Jamiyat Boshqaruvi a‘zolarini moddiy rag‘batlantirish Jamiyatning amaldagi lokal xujjatlariga muvofiq, Jamiyatning samaradorligiga qarab amalga oshiriladi. Normativ huquqiy xujjatlar ijrosi o‘z vaqtida yoki to‘liq bajarilmagan taqdirda rag‘batlantirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.JAMIYAT BOSHQARUVINING VAKOLATLARI

7.Jamiat Boshqaruvi vakolatiga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, yagona aksiyador yoki jamiyat kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

8. Jamiat Boshqaruvi a'zolari yagona aksiyador va Jamiat boshqaruvining qarorlari, Jamiat Boshqaruvi Raisining ko'rsatmalari, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari bilan belgilanadigan vakolat doirasida faoliyat yuritadi.

4.JAMIYATNING BOSHQARUV RAISI

9. Boshqaruv raisi Jamiatning faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Jamiatga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga, Jamiat ustaviga, mahalliy va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qiladi, javobgarlikni taqsimlaydi, Jamiat boshqarish faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal qilish vakolatini belgilaydi.

10.Boshqaruv raisining huquqlari:

- Jamiatning nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan,boshqa tashkilotlar va davlat organlari bilan munosabatlarda Jamiat manfaatlarini ifoda etish;

- temir yo'l transportining ilmiy, texnikaviy va asosiy iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

- Jamiat va uning korxonalari ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining asosiy prognoz parametrlarini tasdiqlaydi;

- Jamiat tarkibiga kiruvchi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va bo'linmalarning ustavlarini tasdiqlaydi;

- Jamiat ustavida nazarda tutilgan mol-mulk va pul mablag'larini tasarruf etish;

- shartnomalar va kontraktlar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzish;

- ishonchnomalar berish;

- banklarda bank va boshqa hisobvaraqlar ochish;

- Jamiatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruq va ko'rsatmalar beradi;

- Jamiatning ijro apparati xodimlarini va Jamiatning tarkibiga kiruvchi korxonalar, muassasalar, bo'linmalar xodimlarini shtatini tasdiqlaydi;

- zarur bo'lganda, boshqaruv xodimlarining belgilangan soni doirasida, Jamiatning ijro apparati tuzilmasiga, mintaqaviy temir yo'l uzellari va Jamiatning tarkibiga kiruvchi korxonalarni boshqaruv apparati tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish;

- belgilangan tartibda Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga kiritilgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va bo'linmalar rahbarlarini tayinlash;
- Jamiyat xodimlariga to'lanadigan haq miqdorini belgilash;
- Jamiyatning nomidan ovoz berish chog'ida Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning boshqaruv organlarida o'z vakillarini tayinlash.

11. Boshqaruv raisining majburiyatlari:

- Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;
- Jamiyat yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini ta'minlash;
- ishlab chiqarish bo'linmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalarning samarali hamkorligini ta'minlash;
- Jamiyatning shartnomaviy majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;
- Ishlab chiqarish va ijtimoiy sohaning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan hajmda daromad olinishini ta'minlash;
- Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarni ishlab chiqilishini boshqarish, ularning bajarilishini tashkil qilish va nazoratga olish;
- Jamiyatning biznes risklarini sug'urtalash va ijroiya organning vakolatlarini belgilash;
- jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotlarning kerakli ravishda olib borilishini, ishonchliligini, tegishli organlarga yillik hamda boshqa moliyaviy hisobotlarning o'z vaqtida topshirilishini, hamda yagona aksiyador, kreditorlar va boshqa ma'lumot oluvchilarga jamiyat faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlash.
- jamiyat Boshqaruvi majlislarini o'tkazishni tashkillashtirish, jamiyat nomidan hujjatlarga va Boshqaruv majlislari bayonnomalariga imzo qo'yish;
- jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni ko'rish, jamiyat xodimlarining bilimlari, malakasi, tajriba va iste'dodlarini eng samarali yo'l bilan ishga solishni ta'minlash;
- mehnat va texnologik intizomga rioya etilishini nazorat qilish;
- jamiyat xodimlarining mehnat muhofazasi va ijtimoiy kafolatlariga rioya etilishini ta'minlash;
- Boshqaruv vakillarining jamoaviy bitimlarda ishtirok etishini ta'minlash;
- tarmoq shartnomasini tuzishda Jamiyatning ma'muriyati sifatida ish olib borish;
- tarmoq shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish;
- o'z vakolati doirasidagi Jamiyatning Kengashi va yagona aksiyadoriga ish holati to'g'risida ma'lumot o'z vaqtida taqdim etish.

5.JAMIYAT BOSHQARUVINING ISH TARTIBI

12. Jamiyat Boshqaruvining yig'ilishi zaruratga qarab, lekin har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi va bayonnoma rasmiylashtiriladi, shuningdek, yig'ilishda qatnashuvchi boshqaruv a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan ma'qullanadi va boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanadi. Kengash yig'ilishida yoki Jamiyat yagona aksiyadori yig'ilishida Jamiyat boshqaruvining faoliyati to'g'risidagi hisoboti Boshqaruv raisi yoki u vakolat bergan Boshqaruv a'zosi tomonidan himoya qilinadi.

13. Boshqaruv majlislarini Boshqaruv raisi yoki ko'rib chiqilayotgan masalalarning taalluqliligi bo'yicha uning o'rinbosarlaridan biri boshqaradi.

Boshqaruv majlislari Boshqaruv raisi tomonidan Boshqaruv ish rejasiga muvofiq chaqiriladi.

Boshqaruv majlislari Boshqaruv ish rejasida ko'zda tutilmagan masalalarni ko'rib chiqish uchun chaqirilishi mumkin. Bunday majlislar Boshqaruv raisi yoki Boshqaruv a'zolari tashabbusi bilan chaqiriladi.

Boshqaruv yig'ilishlarini Jamiyat raisi yoki uning o'rinbosarlari olib boradi.

14. Jamiyat Boshqaruvi Raisi huzuridagi Kotibiyat Jamiyat Boshqaruvi majlislari bayonnomalarini yuritadi. Agar kerak bo'lsa, Jamiyat Boshqaruvi yig'ilishi bayonnomalari yoki ko'chirmalar beriladi:

- Jamiyat Kengashi raisi rahbariga;
- auditorlik tashkiloti va boshqa mansabdor shaxslarning iltimosiga binoan - faqat Jamiyat Boshqaruvi Raisining ruxsati bilan;
- boshqa shaxslarga va organlarga (shu jumladan davlat organlariga)
- amaldagi qonunda nazarda tutilgan hollarda.

6. JAMIYAT BOSHQARUV A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

15. Agar Jamiyat Boshqaruvining a'zosi bitimni amalga oshirishda moliyaviy manfaatdor shaxs bo'lsa, Jamiyatda tomonlardan biri bo'lsa, qaror qabul qilinmagunga qadar manfaatdorligi to'g'risida xabardor qilishi shart va ushbu masalani muhokama qilishda qatnashmaydi.

16. Jamiyat Boshqaruvining a'zolari o'zlarining xizmat lavozimlarida berilgan huquqlardan mehnat munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning maqsadlari va manfaatlarida foydalanmaydilar.

17. Jamiyat Boshqaruvi a'zolari xatti-harakatlarga Jamiyat mulkini tasarruf etishdan shaxsiy foyda olishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.

18. Jamiyatning Boshqaruv a'zolari ushbu sohada ishlayotgan davrlarida, Jamiyatga mahsulotlarini sotish yoki xizmat ko'rsatishda qiyinchiliklar tug'diradigan korxonalarni tashkil etish yoki qatnashish huquqiga ega emaslar. Jamiyatning Boshqaruv a'zosi lavozimga tayinlangandan keyin uning boshqa korxonalarda faoliyatida qatnashishini to'xtatishi shart.

19. Jamiyat boshqaruv a'zolari Jamiyatning strategik maqsadlariga erishishga rioya qiladi, Jamiyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mehnat unumdorligi va mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish, eksport va energiya samaradorligini ko'rsatkichlari oshirish, shuningdek, jamiyatning ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik yangilash.

20. Jamiyat Boshqaruvi a'zolari o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganliklari natijasida Jamiyatga etkazilgan zararni o'rnini qoplaydilar, va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari va Jamiyat ustaviga muvofiq javobgar bo'ladilar. Bunda, ovoz berishda qatnashmagan yoki Jamiyatga zarar yetkazgan qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Boshqaruvi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

21. Jamiyat yoki Jamiyatning yagona aksiyadori Jamiyat tomonidan yetkazilgan zararni qoplash uchun Jamiyat Boshqaruvi a'zolariga yoki uning alohida a'zosiga qarshi sudga da'vo qilish huquqiga ega.

22. Jamiyat boshqaruvining a'zosi jamiyatning ustavini, shuningdek mehnat shartnomasi shartlarini buzganligi uchun bir vaqtning o'zida mehnat shartnomasi bekor qilinishi bilan egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

23. Jamiyat Boshqaruvi a'zolarining javobgarligi majburiy sug'urtalanadi.

7.YAKUNIY QISM

24. Agar ushbu Nizomning alohida moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyat ustaviga xilof bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va bu moddalarda berilgan holatlar bo'yicha ushbu Nizomga tegishli o'zgartishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyat ustaviga asosan amal qilinishi zarur.